



“TO‘RT ULUS TARIXI” HAQIDA BIRLAMCHI MANBA SIFATIDA

Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Tarix yo‘nalishi 2 bosqich talabasi

shahrizodaquldosheva02@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14333837>

ARTICLE INFO

Received: 29 th November 2024

Accepted: 1st December 2024

Published: 8 th December 2024

KEYWORDS

Mirzo Ulug‘bek, To‘rt ulus tarixi,
Amir Temur, Chig‘atoy ulusi,
Chingizxon, V. Bartold, Rashiduddin

ABSTRACT

Ushbu maqola Mirzo Ulug‘bek “To‘rt ulus tarixi” asarining yozilish tarixi, ushbu asarda olamning yaratilishidan tortib, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelguniga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olganligi, bundan tashqari asarda asosan Chig‘atoy ulusi tarixiga oidligi, ko‘plab tadqiqotchilar o‘z asarlarini yozishda “To‘rt ulus tarixi” asaridan manba sifatida foydalanganligi haqida ayrim fikr-mulohazalarni o‘z ichiga oladi

“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratishimiz kerak”

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH. Mirzo Ulug‘bek uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida matematika, astronomiya, tarixga oid asarlar yaratgan. Biroq bizgacha mutafakkirning to‘rt asari: “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” (“Ko‘ragoniyning yangi astronomik jadvallari”), matematikaga oid “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, astronomiyaga doir “Risolayi Ulug‘bek” va “Tarixi arba ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) yetib kelgan [1,7-b].

ASOSIY QISM. Mirzo Ulug‘bek asosan, riyoziyot, falakiyot, musiqashunoslik va tarix ilmlari sohasida qalam tebratgan olim bo‘lib, uning “Tarixi arba ulus” ya‘ni “To‘rt ulus tarixi” asari boshqa asarlariga nisbatan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. “Tarixi arba ulus” asari Rashidudning mashhur “Jome ut-tavarix” asariga o‘xshab, tarixchi olimlar jamoasi xususan, Mirzo Ulug‘bek ishtirokidagi rahbarlar tomonidan yozilgan. Asar bir talay tarixiy, jug‘rofiy manbalar va manqibalar asosida yozilgan. Asar muqaddima va yetti bobdan iborat bo‘lgan va 1425 yilda esa yozib tamomlangan. Asar “Chingiziylarning to‘rt ulusi” va “To‘rt ulus tarixi” degan nomlar bilan mashhur bo‘lgan. Ammo, Yevropa sharqshunoslari orasida birinchilardan bo‘lib o‘rgangan va qisqartirilgan holdagi inglizcha tarjimasini e‘lon qilgan polkovnik Mayls yetarli darajada ma‘lumoti bo‘lmaganligi sababli, bu kitobni “Shajarat ul-atrok” (“Turk (xoqon) larining shajarasi”) deb atagan [2, 182-b]. Chingizxonning va Chig‘atoy avlodi tarixini o‘z ichiga olgan qismi “Ulus-u arba-yi Chingiziy” yoki “Tarix-i arba ulus” deb atalgan.

Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asari o‘sha davrdagi olimlarning asarlari orasida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, o‘rta asrlar tarixnavislik an‘anasi asosida yaratilgan. Ushbu asarda olamning yaratilishidan tortib, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelguniga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Asarning muhim jihatlaridan biri Chig‘atoy ulusi tarixi to‘g‘risida ham boshqa manbalarda kuzatilmaydigan ma‘lumotlarni o‘rin olgani bilan

izohlanadi [3].

Mirzo Ulug'bekning ushbu asaridan qator olim va tadqiqotchilar o'zlarining tarixiy, falsafiy va ijtimoiy asarlarini yozishda foydalanganlar. Xususan, V.Bartold "Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida" va "Ulug'bek va uning davri" singari asarlarini yozishda foydalanishgan. Bartoldning ma'lumotlariga ko'ra, muallif asarda ko'proq mo'g'ul xonlari nomini qayd etgan. Biroq mamlakat va xalqlarning ijtimoiy -iqtisodiy, madaniy hayoti haqida ma'lumot bermasdan, shunchaki ularning nomini keltirish bilan cheklangan [4,105-b]. V.Bartold ushbu asar adabiy yodgorlik va tarixiy tanqid uchun manba sifatida ma'lum darajada qiziqish uyg'otishi, shuningdek, mo'g'ullar mamlakati parchalanishi natijasida paydo bo'lgan davlatlar tarixi haqidagi ma'lumotlarni sezilarli darajada boyitishi mumkin, deb ta'kidlaydi [5, 142-b]. Chunki bugungi kungacha asarning qisqartirilgan shakli saqlanib qolgan va uning to'liq nusxasi topilmagan. Bu tadqiqotchilardan tashqari, Mirzo Ulug'bekning ushbu asaridan o'rta asrlarning ko'plab muarrix olimlari ham o'z asarlarini yozishda foydalangan. Misol uchun, "Bahrul asror" [6, 166-b], "Xulasotul-axbor", "Habibus siyar", "Tavorixi guzidayi nusratnoma" [7, 10-11-b] va "Tarixi Rashidiy" [8, 727-b] asarlarini olishimiz mumkin. Temuriylar davrining mashhur tarixchilaridan biri Xondamir "Xulasotul-axbor" va "Habibus siyar" asarlarini yozishda "To'rt ulus tarixi"dan ishonchli manba sifatida foydalangan. Shunday qilib, Mirzo Ulug'bek ushbu asarni yozishda ko'plab manbalardan foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Ulug'bek asarni yozish davomida ko'plab tarixiy manbalar va manobalarga e'tibor qaratgan. Hattoki, hadis kitoblarida keltirilgan rivoyatlardan ham keng foydalangan.

"To'rt ulus tarixi"ning qisqartirilgan to'rt nusxasi mavjud bo'lib, ular Angliyadagi "India offis" kutubxonasi, Britaniya muzeyi, Hindistonning Bankipur kutubxonasi va AQSHning Garvard universiteti markaziy kutubxonalarida saqlanib kelmoqda [9, 11-12-b].

Dastlab "Tarixi arba ulus" kichik bir maqolada to'rt ulusning tarixini o'z ichiga olganligi sababli, asarni to'rt qismga bo'lgan. Keyinchalik, asarni sinchiklab o'rganish va tarjima qilish tufayli uning mundariyasi haqidagi fikr o'zgargan. Tahmin qilishlariga ko'ra, muqaddima va yetti bobga bo'lish mumkin degan xulosaga kelgan. Asarning eng muhim qismi -uning yettinchi bobi hisoblangan. Unda asosan, Chig'atoy ulusining Chingizxon zamonidan (1227 y.) to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi (1370 y.) gacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi. Ma'lumki, Chig'atoy ulusining qariyb 150 yillik (1227-1370) tarixi o'rganilmagan. Bu asar uni o'rganishdagi asosiy manba hisoblanadi [10, 12-b].

Xulosa qilib aytganda, Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida Chingizxon va uning uluslar tarixini, asosan, Chig'atoy ulusi tarixi to'g'risida ma'lumot beruvchi asosiy manba hisoblanadi. Bundan tashqari, ko'pchilik olim va tadqiqotchilar ham o'zlarining asarlarini yozishda ushbu asardan asosiy manba sifatida foydalangan. Biroq, ushbu manbada ham ayrim juz'iy xatoliklar ham bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IMOM BUXORIY XALQARO ILMIYTADQIQOT MARKAZI. IBXITM – 2023.
2. The Shajarat ul-Atrak, or Geneological Tree of the Turks and tatars, transl and abrid. By Glonel Milles, London.
3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11154186>
4. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Соч. Т. II. - М., 1963.
5. Бартольд В.В. Улугбек и его вре // Соч. III. Ч.2.- М., 1964.
6. Махмуд Ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. Введение, перевод, примечания и указатели Б.А.Ахмедова. - Т.:Фан, 1977.
7. Таварихи гузида Нусратнаме: Исследование, критический текст, аннотированное оглавление А.М.Акраюва.-Т.,1967.

8. Мирза Мухаммад Хайдар Дуглат. Тарихи Рашиди. Введение, перевод с перс. А.Урунбаева, Р.П.Джалиловой, Л.М.Епифановой. -Т.: Фан, 1996.
9. Afshar I. Nusxahayi xatti farsi dars kitabxanayi Danishgaxi Xarvard nashrmyzyi kitabxanayn markaziy-Yai Danpshgaxi Tehran dar barayi nusxahayi xatti. T.IV.-Tehron, 1951.
10. Мирзо Улугбек."Турт улус тарихи" . Тошкент "Чулпон" нашриети.

